



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i>	61
16.	O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU“Sug‘urta ishi” kafedrasini mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU“Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU“Marketing” kafedrasini dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU“Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU“Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, i.f.n.).



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mamaraimova Rushana Rashidovna

Toshkent menejment va iqtisodiyot
instituti assistenti
Mamaraimova2020@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, uning mazmuni va iqtisodiy tizimdagi funksional ahamiyati yoritilgan. Investitsiya jarayonlarida banklarning ishtirokini belgilovchi fundamental iqtisodiy tamoyillar, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishning nazariy modellari, risklarni baholash va boshqarishning ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, investitsion faollikni oshirishga xizmat qiluvchi raqamli texnologiyalar, innovatsion moliyaviy instrumentlar, kapitalning samarali taqsimlanishi va korporativ boshqaruvning nazariy jihatlari chuqur o'rganilgan. Maqolada zamonaviy iqtisodiy paradigmalarga asoslangan holda tijorat banklarining investitsion salohiyatini oshirish va investitsiya siyosatini takomillashtirishga doir nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya faoliyatining nazariy asoslari, investitsion portfel modeli, risklarni boshqarish konsepsiyasi, innovatsion moliyaviy vositalar, raqamli transformatsiya, kapital bozori nazariyasi, investitsiya siyosati, iqtisodiy o'sish omillari, bank tizimi islohotlari

Abstract: this article examines the theoretical foundations for developing the investment activities of commercial banks, highlighting their essence and functional significance within the economic system. It analyzes the fundamental economic principles that determine the participation of banks in investment processes, theoretical models of securities portfolio formation, and scientific approaches to assessing and managing investment risks. Additionally, the study explores the theoretical aspects of digital technologies, innovative financial instruments, efficient capital allocation, and corporate governance that contribute to increasing investment activity in the banking sector. Based on modern economic paradigms, the article formulates theoretical conclusions and recommendations aimed at improving investment policy and strengthening the investment potential of commercial banks.

Keywords: commercial banks, theoretical foundations of investment activity, investment portfolio model, risk management concept, innovative financial instruments, digital transformation, capital market theory, investment policy, economic growth factors, banking system reforms

Абстрактный: в данной статье раскрываются теоретические основы развития инвестиционной деятельности коммерческих банков, ее сущность и функциональная роль в экономической системе. Проанализированы фундаментальные экономические принципы участия банков в инвестиционных процессах, теоретические модели формирования портфеля ценных бумаг, а также научные подходы к оценке и управлению инвестиционными рисками. Кроме того, исследованы теоретические аспекты цифровых технологий, инновационных финансовых инструментов, эффективного распределения капитала и корпоративного управления, способствующие повышению инвестиционной активности банков. На основе современных экономических парадигм сформулированы теоретические выводы и рекомендации по совершенствованию инвестиционной политики и укреплению инвестиционного потенциала коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, теоретические основы инвестиционной деятельности, модель инвестиционного портфеля, концепция управления рисками, инновационные финансовые инструменты, цифровая трансформация, теория рынка капитала, инвестиционная политика, факторы экономического роста, реформы банковской системы.

Introduction (Kirish/Vvedenie).

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachi, balki iqtisodiyotning investitsion jarayonlarida faol ishtirok etuvchi asosiy institut sifatida alohida o'rin tutadi. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya faoliyati iqtisodiyotning barqaror o'sishi, kapitalning samarali taqsimlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va innovatsion loyihalarning qo'llab-quvvatlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois tijorat banklarining investitsiya faoliyatini ilmiy asosda o'rganish va uni takomillashtirish yo'llarini belgilash iqtisodiy nazariyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarining investitsiya jarayonlarida tutgan o'rnini aniqlash, ularning investitsion faolligini belgilovchi asosiy omillar, risklarni boshqarish mexanizmlari, investitsion portfelni shakllantirish tamoyillari va moliyaviy instrumentlardan foydalanishning nazariy asoslari ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya faoliyatining nazariy konsepsiyalarini tahlil qilish, mavjud yondashuvlarni umumlashtirish hamda zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos ilmiy xulosalarni ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Bugungi kunda global moliya bozorlarining o'zgaruvchanligi, investitsiya risklarining ortib borishi, raqamli

texnologiyalarning jadal rivojlanishi va kapital bozorlarining liberallashtirishi tijorat banklaridan investitsion siyosatda yangi nazariy yondashuvlar asosida ishlashni talab etmoqda. Banklar investitsiya jarayonida nafaqat daromadlilik va xavfsizlik mezonlarini uyg'unlashtirishi, balki iqtisodiy tizimdagi uzluksiz o'zgarishlarga moslashuvchan boshqaruv strategiyalarini qo'llashi lozim.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Investitsiyalar - tadqiqotchilar diqqatini eng ko'p o'ziga jalb etuvchi, dominant rivojlanish omillariga, birlamchilarga kiradi. Ularning tahlili - iqtisodiy o'sish nazariyasining asosiy aspektlaridan biri, iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi, ushbu xarakterlovchi investitsiyalar, har-xil iqtisodiy tizimlar va umumiy qonuniyatlar uchun ishlab-chiqarish investitsiyalash invariant mexanizmlar to'g'risidagi xulosalarga tayanadi. Investitsiyalar rolini mamlakatimiz iqtisodiyoti ko'tarishini aniqlash maqsadida, iqtisodiy o'sish nazariyasining investitsion aspektlarining asosiy tamoyillarini ko'rib olamiz.

I.A.Shumpeterning o'sish nazariyasi [1], jamoa ishlab chiqarishning darajasini iqtisodiy agentlarning investitsion aktivligi bilan bog'lash zarur deb takidlaydi, bu bog'lanish texnik progressni shartlaydi deb izohlaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasiga tadqiqotchi bo'lgan D.J.M.Keyns[2] o'zining sezirarli ulushini qo'shgan. U tizimning rivojlanish o'zgarishi investitsiyalarga bog'liq bo'lgan ichki regulyatorlar nomlanishi bilan belgilagan, ularning ta'sirchanlik kuchi, jamoat boshqaruvi qo'lida taqsimlash huquqi bo'lgan holda belgilanadi. Shunday qilib, Keynes nazariyasi investitsiyalar yordamida amalga oshirilayotgan, iqtisodiyotni effektiv rivojlanishi uchun, davlat boshqaruvining salmoqliyliigi ajratib bergan.

Dj.R.Xiksning [3] qo'l yozmalarida investitsiyalar shartlangan tizimlar siklik o'sishlar bog'lama yanada chuqquroq o'rganilgan. Uning nazariyasi, multiplikator, akselerator va mustaqil (avtonom) investitsiyalar modellari, notekkis o'tib boruvchi yoki rezonans tiplardagi jarayonlari iqtisodiyotga har-xil ta'sir etuvchilik bilan aks etilayotgan, kech qolish bir tekis funksiyalar tizimi bilan mujassamlangan.

M.I.Tugan-Baranovskiy [4] qo'l yozmalarida, iqtisodiy sikllar zamonaviy investitsion nazariyasining asoschisi deb hisoblanadi. Uning tamoyili negizida (1894 yilda chop etilgan «Angliyadagi ishlab chiqarish krizislari» kitobida tavsif etilgan). Yangi asosiy kapital davriy tashkil etish bilan ishlab chiqarish og'ishlar aloqalari g'oyasi yotmoqda; bunda nafaqat bank-kredit tizimining roli, balki ishlab chiqarish jarayonlarining har-xil yo'nalishlaridagi iqtisodiy (investitsion) aktivligining omillari hisobga olinadi.

Jumladan, xorijiy iqtisodchilar Yu. Morozkin va Ye. Svistunovalarning ta'kidlashicha, fond bozori kon'yunkturasi dinamik o'zgarib borishi sharoitida optimal qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish doimo ham banklar uchun yetarli bo'lmaydi. Bozorning tebranishlarga boy muhitida tijorat banklari o'z investitsion portfellarini boshqarishda takomillashgan strategiyalarni qo'llashi zarur bo'ladi. [5] Bunday strategiya fond bozorida tendensiyalarni doimiy monitoring qilish, mavjud omillar asosida portfel tarkibiga o'z vaqtda tuzatishlar kiritish hamda investitsion qarorlarning aniqligi va zamonaviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari investor sifatida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq keng ko'lamlari operatsiyalarni amalga oshiradi. Ular qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, ularni garov sifatida qabul qilib kreditlar joylashtirish, dividendlar va foiz to'lovlarini qabul qilish, emitent xo'jalik subyektlarining boshqaruvida ishtirok etish, bankrotlik jarayonlarida kreditor sifatida qatnashish, shuningdek moliyaviy aktivlar va aksiyalarga investitsiyalarni amalga oshiradi. Bularning barchasi banklarning investitsion faoliyatini bozor mexanizmi, infratuzilma va institutsional omillar bilan chambarchas bog'laydi. [6] E.V. Yakutina investitsiya munosabatlarida banklarning o'z alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, banklar turli vositalar orqali aholining katta hajmdagi bo'sh mablag'larini jalb qilib, ularni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining real tiklanishi va iqtisodiy o'sishga xizmat qilishini alohida qayd etadi. Demak, banklar milliy iqtisodiyotda investitsion resurslar harakatining asosiy uzatuvchi bo'g'ini vazifasini bajaradi. [7] A.V. Zverev, V.V. Mandron va M.Yu. Mishinalar esa moliyaviy institutlarning investitsiya siyosatini ishlab chiqishda asosiy maqsadlarni belgilash va ularga erishishning eng maqbul usullarini tanlash muhimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, investitsiya faoliyatini boshqarish – xavf va rentabellik o'rtasida optimal nisbatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bunda strategik va taktik boshqaruv elementlari muhim bo'g'in hisoblanadi. [8] B.A. Rayzberg tijorat banklari investitsiyalarini uzoq muddatli samaradorlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va ularga yo'naltirilgan resurslardan olinadigan qo'shimcha foyda bilan bog'liq iqtisodiy jarayon sifatida talqin etadi. Bu yondashuv banklarning investitsiya portfelini shakllantirishda barqarorlik va uzoq muddatli daromadlilik mezonlarini ustuvor qo'yishini anglatadi. [9] L.L. Igonina banklarning investitsiya faoliyatini iqtisodiy subyekt sifatidagi roli nuqtayi nazaridan baholagan holda, banklar moliyaviy aktivlarini yaratish va sotib olish orqali bozorning ma'lum segmentlariga o'z resurslarini vaqtincha joylashtiruvchi investor sifatida faoliyat yuritishini alohida qayd etadi. Bu jarayonda banklar kapital va jamg'armalarni jalb qilish orqali kelgusida ulardan yuqori samarali foydalanish imkoniyatlarini shakllantiradi. [10]

Tahlil etilgan ilmiy yondashuvlar tijorat banklarining investitsiya faoliyatining nazariy jihatdan murakkab va ko'p qirrali tuzilishga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida ishtiroki ularning investitsion strategiyasiga, riskka nisbatan munosabati va kapitalni joylashtirish tamoyillariga bevosita bog'liqdir. Nazariy jihatdan banklar aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar hamda boshqa moliyaviy instrumentlarga sarmoya kiritish orqali nafaqat daromad olish, balki portfelni diversifikatsiya qilish, xavflarni kamaytirish va bozor kon'yunkturasi moslashuvchan boshqaruvi amalga oshirish

imkoniyatiga ega bo'ladi. Investitsiya faoliyatining nazariy asoslari shuni anglatadiki, tijorat banklari investitsiya jarayonida faqat o'z kapitalini joylashtiruvchi subyekt emas, balki moliyaviy vositachi sifatida ham amal qiladi. Ular mijozlarning investitsion portfellarini boshqarish, investitsiya bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatish, fond bozorida operatsiyalarda ishtirok etish orqali iqtisodiyotning investitsion infratuzilmasini shakllantiradi. Shu tariqa, banklarning investitsion faoliyati umumiy iqtisodiy muhitning barqarorligi, kapitalning samarali taqsimlanishi va moliya bozorlarining rivojlanishida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyosiy tahlil, retrospektiv va istiqbolli tahlil, shuningdek empirik metodlardan keng foydalanildi. Ushbu uslublar tijorat banklarining investitsiya faoliyati bilan bog'liq nazariy yondashuvlarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyati umumlashtirish hamda investitsion jarayonlarning ilmiy asoslarini chuqur o'rganish imkonini berdi. Maqolada qiyosiy tahlil usuli asosida rivojlangan mamlakatlar bank tizimidagi investitsiya faoliyatining nazariy va tashkiliy-huquqiy tamoyillari milliy bank amaliyotidagi mavjud yondashuvlar bilan solishtirilib, tijorat banklarining investitsion faoliyatini nazariy jihatdan takomillashtirishga doir xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsion aktivlarning hech biri barcha iqtisodiy xususiyatlar - yuqori daromadlilik, yuqori ishonchlilik, yetarli likvidlik va past risk darajasini - bir vaqtning o'zida to'liq darajada mujassam eta olmaydi. Shu sababli investitsiya jarayonida banklar optimal nisbatni topish maqsadida mazkur xususiyatlar o'rtasida muvozanatni shakllantirishga majbur bo'ladi. Masalan, qimmatli qog'ozlar yuqori ishonchlilikka ega bo'lgan holatlarda ularning daromadlilik past bo'lishi tabiiydir, chunki xavfsizlikni afzal ko'ruvchi investorlarning yuqori talab va takliflari rentabellikning pasayishiga olib keladi.

1-jadval

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini tashkil etish tamoyillari¹

Tamoyil nomi	Mazmuni
Investitsiya strategiyasini tanlashda mutanosiblik tamoyili	Bankning investitsion strategiyasi iqtisodiy sharoit, bozor kon'yunkturasi, aktivlarning rentabelligi va risk darajasi o'rtasidagi optimal muvozanatga asoslangan holda shakllantirish zarur.
Investitsiya faoliyatini diversifikatsiyalash tamoyili	Investitsion portfel tarkibini turli moliyaviy instrumentlar bo'yicha kengaytirish orqali risklarni kamaytirish va daromadlilikni barqarorlashtirish nazariy jihatdan asoslanadi.
Sotib olinadigan qimmatli qog'ozlarning yetarli darajadagi likvidligi tamoyili	Bankning investitsiya portfeliga kiritiladigan aktivlar qisqa muddatda naqdga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lishi, ya'ni yuqori likvidlikka ega bo'lishi lozim.
Investitsiya operatsiyalari risklarini xedjirlash tamoyili	Bozor tebranishlari, foiz stavkalari o'zgarishi va boshqa moliyaviy risklarni kamaytirish uchun derivativlar va boshqa himoya instrumentlaridan foydalanish nazariy jihatdan muhim tamoyil hisoblanadi.
Qimmatli qog'ozlar emitentlarining shaffofligini ta'minlash tamoyili	Investitsiya qarorlarining ishonchligi emitent korxonalarining moliyaviy hisobotlari ochiqliqi, korporativ boshqaruv sifati va kreditga layoqatlilik darajasiga bog'liq.

Tijorat banklarining investitsiya portfelini shakllantirish jarayonida asosiy nazariy maqsad – risk va daromad o'rtasidagi eng maqbul nisbatni ta'minlashdan iborat. Mazkur yondashuv portfel nazariyasining fundamental tamoyillaridan biri bo'lib, bankning investitsion strategiyasi aktivlar kombinatsiyasi orqali riskni minimallashtirish va shu bilan birga umumiy daromadlilikni maksimalashtirishga qaratilgan bo'lishi zarurligini taqozo etadi. Shunday qilib, investitsiya vositalarining ilmiy asoslangan to'plami tijorat banklari uchun barqaror investitsion siyosatni shakllantirish, bozor o'zgarishlariga moslashish hamda uzoq muddatli investitsion samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini tashkil etish bank tizimining asosiy funksional yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning nazariy asoslari moliya bozorlari mexanizmi, risklarni boshqarish konsepsiyalari, portfel nazariyasi va investitsion strategiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayonning nazariy mohiyati bank resurslarining optimal taqsimlanishi, ularning daromadlilikini oshirish hamda

¹ Muallif ishlanmasi

investitsion risklarni minimallashtirishga qaratilgan ilmiy tamoyillarni o'z ichiga oladi.

2-jadval

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlari²

Nazariy jihat	Mazmuni	Bank investitsiyasidagi ahamiyati
1. Investitsiya strategiyasi tamoyili	Investitsiyalarni rejalashtirish, bozor holatini tahlil qilish, kapitalni optimal yo'naltirish nazariyasi	Bankning uzoq muddatli investitsion yo'nalishini belgilaydi, resurslar samaradorligini oshiradi
2. Portfel nazariyasi	Aktivlar kombinatsiyasi orqali risk va daromad o'rtasida optimal nisbatga erishish (Markovits modeli)	Bank investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishga, riskni minimallashtirishga imkon yaratadi
3. Diversifikatsiyalash tamoyili	Investitsiya aktivlarini turli yo'nalishlar va instrumentlar bo'yicha taqsimlash	Risklarni kamaytiradi, daromadlilikni barqarorlashtiradi
4. Likvidlik tamoyili	Investitsiya aktivlarining tez va qiymat yo'qotmasdan naqdga aylantirilish imkoniyati	Bankning to'lovga qobiliyatini ta'minlaydi va investitsiya siyosatini barqaror qiladi
5. Investitsiya risklarini boshqarish nazariyasi	Xedjirlash, sug'urtalash, kredit riskini baholash, derivativlardan foydalanish	Bank portfelining xavfsizligini oshiradi, bozor tebranishlariga moslashuvchanlikni kuchaytiradi
6. Moliyaviy instrumentlar nazariyasi	Aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar, boshqa investitsion aktivlarning iqtisodiy mohiyati	Bankning investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi, kapital oqimini boshqarishni yaxshilaydi
7. Emitent shaffofligi tamoyili	Korxonalarining moliyaviy hisobotlari ochiqligi va ishonchligi	Investitsiya qarorining ishonchligini va xavfsizligini ta'minlaydi
8. Raqamli texnologiyalar nazariyasi	Fintex, big data, sun'iy intellekt, elektron investitsiya platformalari	Investitsiya jarayonini tezlashtiradi, tahlil sifatini oshiradi, tranzaksiyalar xavfsizligini kuchaytiradi
9. Kapital taqsimoti nazariyasi	Kapitalning iqtisodiy sektorlar o'rtasida optimal joylashtirilishi	Bank investitsiyalarining iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytiradi va investitsion samaradorlikni oshiradi

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini samarali tashkil etishda investitsiya qo'yilmalarini joylashtirish jarayonida qimmatli qog'ozlar portfelini kompleks tahlil qilish muhim nazariy talab hisoblanadi. Portfel investitsiyalarini boshqarishda, odatda, ikki asosiy yo'nalish – daromad portfeli va o'sish portfeli ajratib ko'rsatiladi. Har ikkala portfel shakllanishida fundamental iqtisodiy tamoyillar, xususan, minimal risklilik, yetarli likvidlilik va optimal daromadlilik mezonlari asosiy nazariy mezon sifatida qo'llaniladi. Mazkur yondashuv Markovitsning zamonaviy portfel nazariyasi tamoyillariga tayanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini o'rganishda ikki asosiy nazariy yo'nalish mavjud: an'anaviy yondashuv va zamonaviy portfel yondashuvi. Bugungi kunda fond bozorlarining dinamik va volatilligi yuqori bo'lgan sharoitda zamonaviy portfel yondashuvi bank investitsiyalarini optimallashtirishda asosiy nazariy ustuvorlikka ega.

O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari investitsion faoliyatining shakllanishi bir qator nazariy va amaliy omillarga bog'liq. Jumladan, mijozlarning moliyaviy holati to'g'risida yetarli axborotga ega bo'lish, bank kapitalining yetarlik darajasi, emitentlar faoliyatini muntazam monitoring qilish, shuningdek, korporativ qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish imkoniyatlari banklar uchun investitsion manfaaddorlik darajasini oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Investitsiya faoliyati sifati esa ushbu faoliyatning barqarorligi va samaradorligining asosiy garovi hisoblanadi.

Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarga oid axborotlarning ochiqligini ta'minlash, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining faoliyat standartlarini ishlab chiqish, elektron savdo tizimlarini rivojlantirish, hisob-kitob mexanizmlarini modernizatsiya qilish, ikkilamchi bozorda market-meykerlar faoliyatini kuchaytirish kabi nazariy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari faoliyatini standartlashtirish banklarning yuqori malakali investitsion operatsiyalarini amalga oshirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini tartibga soluvchi me'yoriy talablarni to'liq bajarishi va bozorning barcha segmentlarida professional munosabatlarni rivojlantirishi lozim.

Investitsiya faoliyatining nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar bozori rivoji emissiya jarayonining samarali mexanizmini yaratishni, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar majmuasini kengaytirishni, investitsiya institutlari tarmog'ini rivojlantirishni, konvertatsiyalanuvchi qimmatli qog'ozlar bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni hamda ushbu jarayonda tijorat banklari faolligini oshirishni talab etadi.

Shu bilan birga, banklar qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritishda bir qator investitsion risklarga duch keladi. Risklarni minimallashtirishning nazariy mexanizmlari sifatida sug'urtalash, davlat va nodavlat investitsiya fondlari bilan hamkorlik, xorij tajribasiga asoslangan qo'shma investitsiya loyihalarini joriy etish, reyestr egalari va portfel ishtirokchilarining o'zini o'zi boshqaruvchi strukturalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

3-jadval

ATB "Agrobank"ning qimmatli qog'ozlar hamda investitsiya faoliyati tahlili³

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari (mlrd. so'm)	935,2	1 432,1	1 991,5	901,4	253,2
Jami aktivlardagi ulushi (%)	3,10	4,59	4,98	1,70	0,38
Investitsiyalar (mlrd. so'm)	235,1	244,0	440,7	997,1	793,8
Jami aktivlardagi ulushi (%)	0,78	0,78	1,10	1,88	1,19
Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz daromadi (mlrd. so'm)	36,3	19,0	125,1	269,1	90,4
Jami foizli daromadlar tarkibidagi ulushi (%)	0,91	0,44	2,00	3,43	0,80
Investitsiyalar bo'yicha foiz daromadi (mlrd. so'm)	80,0	82,0	39,3	39,3	39,3
Jami foizli daromadlar tarkibidagi ulushi (%)	2,01	1,91	0,63	0,50	0,35
Jami aktivlar (mlrd. so'm)	30 125,1	31 211,0	39 971,1	53 068,1	66 699,7
Jami foizli daromadlar (mlrd. so'm)	3 986,3	4 286,3	6 263,1	7 847,1	11 309,6

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ATB "Agrobank"ning investitsiya faoliyati 2019–2023-yillar davomida sezilarli dinamikaga ega bo'lgan. Xususan, bankning investitsiya qo'yilmalari 2019-yildagi 235,1 mlrd so'mdan boshlab yillar kesimida izchil o'sib borgan va 2022-yilda 997,1 mlrd so'm bilan eng yuqori darajaga yetgan. 2023-yilda investitsiya hajmi

asosida).

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif hisob-kitoblari (www.agrobank.uz) ATB "Agrobank" sayti ma'lumotlari

793,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 558,7 mlrd so'mga oshgan. Bu bankning real sektorni moliyalashtirishdagi faolligi kuchayganini anglatadi. Bundan tashqari, investitsiyalarning bank aktivlari tarkibidagi ulushi ham yillar o'tishi bilan ortib borib, 2023-yilda 1,19 foiz darajaga erishgan. Bu ko'rsatkich qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalari ulushiga nisbatan barqaror o'sishni bildiradi.

Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar esa yillar davomida o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, 2021-yilda 1,99 trln so'm bilan eng yuqori darajaga chiqdi, biroq 2022–2023-yillarda sezilarli pasayish kuzatildi. Bu bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar va bankning portfel tarkibini qayta optimallashtirish strategiyasi bilan izohlanadi. Bankning jami foizli daromadlari esa 2019–2023-yillarda barqaror o'sish trendiga ega bo'lib, 2019-yildagi 3,99 trln so'mdan 2023-yilda 11,31 trln so'mga yetgan. Bu o'sish bankning aktivlar portfeli kengaygani, kreditlash hajmining oshgani va aktivlar rentabelligi yaxshilangani bilan bog'liq. Shu tariqa, ATB "Agrobank"ning qimmatli qog'ozlar va investitsiya faoliyati strukturasi so'nggi yillarda sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan bo'lib, investitsiya portfeli diversifikatsiyasi, foizli daromadlarning o'sishi va investitsion loyihalarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmining ortishi bankning investitsion strategiyasini bosqichma-bosqich takomillashtirayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari tijorat banklarining investitsiya faoliyati zamonaviy moliyaviy tizimning tarkibiy qismi ekanini, uning samaradorligi esa iqtisodiy o'sish, kapitalning qayta taqsimlanishi hamda investitsion jarayonlarning barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Investitsiya jarayonining nazariy asoslari - portfel nazariyasi, risklarni boshqarish konsepsiyalari, diversifikatsiya tamoyili, likvidlik va daromadlilik mezonlari tijorat banklari uchun investitsion strategiya shakllantirishda fundamental yo'nalish sifatida xizmat qiladi. Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlari ham shuni tasdiqlaydiki, fond bozori kon'yunkturasining o'zgaruvchan sharoitida banklar an'anaviy investitsion yondashuvlarni modernizatsiya qilishi, bozor signallariga moslashuvchan yondashuvlarni qo'llashi va investitsion risklarni ilmiy yondashuv asosida boshqarishi zarur. Zamonaviy investitsiya strategiyasi nafaqat daromadlilikni oshirish, balki riskni minimallashtirish, aktivlarni diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni ham nazarda tutadi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, ATB "Agrobank"ning qimmatli qog'ozlar portfeli va investitsiya faoliyati 2019–2023-yillar davomida sezilarli o'zgarishlarga ega bo'lgan. Bankning investitsiya qo'yilmalari umumiy jihatdan o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2019-yildagi 235,1

mlrd so'mdan 2023-yilda 793,8 mlrd so'mga yetgani bankning real sektorga yo'naltirilgan resurslar hajmi ortganini ko'rsatadi. Biroq, oldi-sotdi qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'larning keskin pasayishi bank strategiyasida portfelni qayta optimallashtirish va risklarni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilganidan dalolat beradi.

Bankning jami foizli daromadlari izchil o'sib borgan bo'lib, 2019-yildagi 3,98 trln so'mdan 2023-yilda 11,31 trln so'mga yetgani investitsiya va kredit operatsiyalari samaradorligining oshganini tasdiqlaydi. Bu esa bank investitsiya portfeli tarkibini yaxshilash, kapital bazasini mustahkamlash va daromad keltiruvchi aktivlar ulushini ko'paytirish bo'yicha olib borilgan strategik choralar o'z samarasini berganini anglatadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarbdir:

1. Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish - bozor risklarini kamaytirish va daromadlilikni barqarorlashtirish.
 2. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish - investitsion qarorlar sifatini oshirish, tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash va operatsion samaradorlikni kuchaytirish.
 3. Qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasini rivojlantirish - elektron savdo tizimlari, market-meykerlar instituti va hisob-kitob mexanizmlarini takomillashtirish.
 4. Emitentlar faoliyatining shaffofligini kuchaytirish - investitsiya risklarini kamaytirish va banklarning qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish.
 5. Nazariy yondashuvlar asosida investitsion siyosatni takomillashtirish modern portfel nazariyasi, riskni xedjirlash instrumentlari va strategik boshqaruv tamoyillaridan keng foydalanish.
- Umuman olganda, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari - iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, moliyaviy bozorlardagi raqobatbardoshlikni oshirish va investitsiya salohiyatini kengaytirishning muhim omili sifatida xizmat qiladi. Strategik yondashuvlar, ilmiy asoslangan portfel boshqaruvi va zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni qo'llash banklarning investitsion faoliyat samaradorligini yanada oshirib, iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Schumpeter J.A. Theory of economic development. Cambridge, 1943.
2. Н.Е.Егоров, А.М.Смулов Предприятия и банки. –М.: "Дело". 2002. –С. 298-299.
3. Hicks J.R. A Contribution to the theory of the trade cycle. Oxford, 1950.
4. Шулов Н.С. Ценность и стоимость (системного анализа). Ч. 2. М., 1994.
5. Морозкин Ю.Н, Свистунова Е.С. Управление портфелем ценных бумаг в коммерческом банке//Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2011. – №6. – С. 138.
6. Боровкова В. А., Боровкова В. А. Рынок ценных бумаг: Учебное пособие. 2-е изд., обновленное и дополненное. – " Издательский дом " Питер", 2021.
7. Якутина Э.В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. – 2017. – № 5 (26). – С. 59-62.
8. Зверев А.В., Мандрон В.В., Мишина М.Ю. Инвестиционная деятельность и инвестиционная политика банковского сектора РФ // Вестник БГУ. – 2018. – №3 (37). –
9. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева; 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 512 с
10. Игоница Л. Л. Инвестиции. – М.: Магистр, 2014. – 752 с.